

Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th May - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

MOYCHECHAK O‘SIMLIGINING FOYDALI XUSUSIYATLARI VA UNI YETISHTIRISH AGROTEKNIKASI

¹ Xaticha Abduraxmanova Raximjon qizi ,

² Abdubannayeva Xurshida G‘aybullo qizi,
G‘ulomova Gavharoy Mamasiddiq qizi

¹Namangan Davlat Universiteti "Biotexnologiya kafedrası" o‘qituvchisi

²Namangan Davlat Universiteti Biotexnologiya kafedrası talabalari

email: abdurahmanovahaticha@gmail.com

Tel: + 998 94 502 96 01

Annotatsiya:

Moychechak o‘simligining morfologiyasi, tarqalishi, kimyoviv tarkibi, dorivorligi, qaysi kasalliklarga davo bo‘lish o‘rganilgan. Moychechak turkumiga kiruvchi turlarni aniqlash va yetishtirish agratexnikasini o‘ganishdan iborat.

Kalit so‘zlar: Moychechak, lakton, kumarin, karotin, vitamin, efir moy, surunkali gastritlar, xolesistit,

ПОЛЕЗНЫЕ СВОЙСТВА РОМАШКИ И АГРОТЕХНИКА ЕЕ ВЫРАЩИВАНИЯ

¹ Хатича Абдурахманова Рахимжон қизи , ² Абдубаннаева Хуршида Ғайбулло қизи, Ғуломова Ғавҳарой Мамасиддиқ қизи

¹ Преподаватель Наманганского государственного университета факультета
Биотехнологии

² Наманганский государственный университет

Студенты факультета биотехнологии

Электронная почта: abdurahmanovahaticha@gmail.com

Тел: + 998 94 502 96 01

Аннотация: Морфология, распространение, химический состав, лечебные свойства растения ромашки, от каких болезней лечат. Он заключается в изучении агротехники выявления и выращивания видов, относящихся к семейству ромашек.



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th May - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

Ключевые слова: Ромашка, лактон, кумарин, каротин, витамин, эфирное масло, хронический гастрит, холецистит,

BENEFICIAL PROPERTIES OF CHAMOMILE AND AGRICULTURAL TECHNIQUES FOR GROWING IT

¹ Khatica Abdurakhmanova Rakhimjon kizi, ² Abdubannaeva Khurshida Gaybullo kizi, Gulomova Gavkaroy Mamasiddiq kizi

¹ Teacher at Namangan State University, Faculty of Biotechnology

² Namangan State University Students of the Faculty of Biotechnology

Email: abdurahmanovahatica@gmail.com

Tel: + 998 94 502 96 01

Abstract:

Morphology, distribution, chemical composition, medicinal properties of the chamomile plant, what diseases are treated for. It consists of studying agricultural technology for identifying and growing species belonging to the daisy family.

Keywords: Chamomile, lactone, coumarin, carotene, vitamin, essential oil, chronic gastritis, cholecystitis,

KIRISH

Ilm-fan va texnologiyaning rivojlanishi bilan, ko'payib borayotgan aholi ehtiyojlarini qondirish uchun turli xil dorivor o'simliklarga bo'lgan ehtiyoj tobora ortib bormoqda. So'nggi yillarda dorivor o'simliklarni yetishtirish bo'yicha turli xil qarorlar qabul qilinmoqda. Ularni ijrosini ta'minlash borasida turli plantatsiyalar qilinmoqda. Turli farmatsevtika va terapevtik qo'llanilishi tufayli hozirgi kunda dorivor o'simliklar muhim o'rin egallamoqda. Dorivor o'simliklardan foydalanish, uni ishlab chiqarilishini ham kuchaytirmoqda.

Moychechak mahsulot tarkibida 0,12 - 0,8% efir moyi, glikozolid gruppalaridan laktonlardan, proxamazulen, kumarinlar, karotin, vitamin S va shilliq moddalardan iborat. Oddiy moychechak 0,3%, yashil moychechakda 0,2% dan efir moyi kam bo'lmasligi kerak. Moychechak gullari A provitami, ko'pgina organik kislotalar (jumladan, S vitamini) va boshqa biologik faol elementlar saqlanishi bilan ham shifobaxsh o'simliklar qatoridan joy olgan.



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th May - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

ADABIOTLAR TAHLILI

Sanoat va ilm-fan rivojlanishi bilan dorivor o'simliklarni o'rganish obyektlari ham ko'payib bormoqda. So'ngi yillarda ko'plab olimlar o'simlik mahsulotlaridagi moddalardan turli maqsadlarda foydalanishni o'rganishdi. Bu jarayon ayniqsa 2020 - yillarga kelib jadallashdi. Ushbu izlanishlar natijasida dorivor o'simliklardan olinadigan turli moddalar tibbiyotda keng miqyosda ishlatilyapdi. Ayniqsa bu borada O'. Pratorov, Q. Jumayev, L. Shamsuvaliyeva, E. Suloymonov X. Xolmatov, O'. Ahmedov, B. O. Beknazarovlarning izlanishlari ko'plab samara bergan. Xususan moychechak turlari, morfologiyasi, ularni tarqalish hududlar, o'simlik tarkibida efir moyi, glikozolid gruppalar, laktonlardan, kumarinlar, karotin, vitamin S va shilliq moddalardan iboratligini o'rganishgan.

TADQIQOT OBYEKI VA METODI

Maqolada moychechak o'simligi va uni mahsulotini ishlab chiqarishni jadal rivojlanishini yo'lga qo'yilishi, tibbiyotda va xalq tabobatida ishlatilishini va Yetishtirish agrotexnikasi o'rganildi. Moychechak gulli tarkibida vitamin karotin efir moyi mavjud bo'lishini, ular moychechak yallig'lanishga qarshi ishlatilishini, shuningdek, og'riq qoldirish, ichakda bijg'ish jarayonini kamaytirish, allergik reaksiyalarni susaytish xususiyatlari ham borligini moychechak preparatlari me'da va ichak, ginekologik kasalliklarni davolashda, hamda yel haydovchi dori sifatida ishlatilishini, yana yumshatuvchi, antiseptik, og'iz, tomoq chayqashda ishlatilishini va boshqa ko'plab xususiyatlari o'rganildi.

TAHLILLAR VA NATIJALAR

Morfologiyasi. Oilasi. Astradoshlar - Asteraceae (Murakkabguldoshlar Compositae) Dorivor moychechak (*Matricaria officinalis*) ning bo'yi 15 - 40 sm ga yetadigan bir yillik o't o'simlik, poyasi tik o'suvchi, sershox, ichi kovak. Bargi ikki marta patsimon ajralgan, bo'laklari ingichka chiziqsimon, o'tkir uchli. Shoxlari savatchaga to'plangan gullar bilan tamomlanadi. Savatcha chetidagi gullari oq, tilsimon, o'rtadagilari esa ikki jinsli, sariq, naychasimon. Mevasi - qo'ng'ir - yashil pista. May oyidan boshlab kuzgacha gullaydi [1;2;3].

Tarqalishi. MXD ning Evropa qismining janubida, Kavkaz, Qrim, Ukraina, Sibirning janubiy rayonlari va O'rta Osiyoda uchraydi. Yashil moychechak MXD



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th May - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

ning Evropa qismi, G'arbiy Sibir va Uzoq Sharqda o'sadi. Ukraina, Belorussiyada o'stiriladi.

Yashil moychechakning savatchasi maydaroq bo'lib, yashil naychasimon gullardan tashkil topgan. Gulkosachasi yupqa parda shaklida, gultojisi 4 tishli. Savatchaning gul o'rnini konussimon, tuksiz va ichi bo'yi, shu bilan boshqa savatchasi bor o'simliklardan farq qiladi [2;3;].

Mahsulotning tashqi ko'rinishi. Tayyor mahsulot savatchaga to'plangan gullardan iborat. Dorivor moychechak savatchasining diametri 4-8 mm, yarim sharsimon bo'lib, o'rama barglari cherepisaga o'xshab joylashgan. Savatcha chetidagi oq tilsimon gullari 12-18 ta bo'ladi. O'rtadagi gullari sariq, ikki jinsli, naychasimon, gulkosachasi bo'lmaydi, gultojisi besh tishli, otaligi 5 ta, onalik tuguni bir xonali, pastga joylashgan. Yashil moychechakning savatchasi maydaroq bo'lib, yashil naychasimon gullardan tashkil topgan. Gulkosachasi yupqa parda shaklida, gultojisi to'rt tishli. Savatchaning gul o'rnini konussimon, tuksiz va ichi bo'sh. Ana shu belgilari bilan dorivor (oddiy) va xushbo'y (yashil) moychechak savatchasi boshqa o'simlik aralashmalaridan (moychechak o'simligi o'sadigan yerda uchraydigan *Matricaria inodora.*; *Leucantxemum vulgare Lam.*; *Antxems turlaridan*) farq qiladi. Har ikkala moychechak mahsulotining xushbo'y hidi va achchiqroq o'tkir mazasi bor.

XI DF ga ko'ra mahsulot namligi 14%, umumiy kuli 12%, 10% li xlorid kislotada erimaydigan kuli 4%, teshigining diametri 1 mm li elakdan o'tadigan savatchaning mayda qismlari 30%, poya, barg aralashmalari va gul bandining uzundigi 3 sm dan oshiq bo'lgan (5 sm dan oshib ketmagan), savatchalar odatda 9% (yashil moychechak uchun 2%), qoraygan yoki qo'ng'ir savatchalar 5% (yashil moychechak uchun 8%), organik aralashmalar 3% va mineral aralashmalar 0,5% dan oshmasligi kerak [3].

Kimyoviy tarkibi. Mahsulot tarkibida 0,12 - 0,8% efir moyi, glikozolid gruppalaridan laktonlardan, proxamazulen, kumarinlar, karotin, vitamin S va shilliq moddalardan iborat. Oddiy moychechak 0,3%, yashil moychechakda 0,2% dan efir moyi kam bo'lmasligi kerak.

Moychechak gullari R guruhi vitaminlari, A provitamini, ko'pgina organik kislotalar (jumladan, S vitamini) va boshqa biologik faol elementlar saqlanishi bilan ham shifobaxsh o'simliklar qatoridan joy olgan [2;4].



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th May - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

Dorivorligi. Shifobaxsh xususiyatga ega bo'lgan moychechak (romashka) o'simligi teri va uyqu holatini me'yorlashtirish xususiyatiga ega. Tomoq yallig'lanishi va shamollashda ham moychechak damlamasi yaxshi yordam beradi. Ishlatilishi. Moychechak yallig'lanishga qarshi ishlatiladi. Shuningdek, asabni tinchlantiradi, ishtahani ochadi, o't ajralishini kuchaytiradi. Og'riq qoldirish, ichakda bijg'ish jarayonini kamaytirish, allergik reaksiyalarni susaytish xususiyatlari ham bor. Moychechak preparatlari me'da va ichak, ginekologik kasalliklarni davolashda, hamda teri va yel haydovchi dori sifatida ishlatiladi. Yana yumshatuvchi, antiseptik, og'iz, tomoq chayqashda ishlatiladi.

Dorivor preparatlari. Damlama - Infusum floris Chamomillae
Xalq tabobatida qo'llanishi. Moychechak xalq tabobatida bavoil (*gemorroy*), o't pufagida tosh paydo bo'lishi, ayollar jinsiy a'zolari kasalliklari, homiladorlikdagi toksikoz, oshqozon va o'n ikki barmoqli ichak yarasi, yarali kolit va boshqa dardlarni davolashda qo'llaniladi. Moychechakdan yana surunkali gastritlarda, xolesistitda, o't yo'llari diskineziyasida, surunkali gepatitlarda foydalaniladi.

Moychechak xushbo'y (*vanna qilish uchun*), yel haydovchi, tinchlantiruvchi, yumshatuvchi yig'malar tarkibiga kiradi. Qadimda nefrit, sistitda, bezgak, isitma mahallarida, uyqusizlikda moychechak damlamasi buyurilgan. Moychechak gullaridan tayyorlangan qaynatmaga tuz qo'shib revmatizm, podagra kasalliklarida, chipqonda ishlatilgan [3;].

Kasalliklarga davoligi. Gulini xuddi choyga o'xshatib damlab ichadilar. U me'da yarasini yo'qotadi. Bargi ovqatni tez hazm qildiradi, miyaga quvvat beradi, asabni tinchlantiradi, sutni va terni ko'paytiradi. Miya va bosh og'rig'ini yo'qotadi, burundan suv oqishini to'xtatadi. Nafas siqishi, sariq va bod kasalini davolaydi. Buyrak toshini maydalab, tashqariga chiqaradi. Savdo, balg'am va ichak sanchig'ini yo'qotadi. Bargi va tanasi chaynalsa, og'iz qurishini, suvi esa ko'z og'rig'ini ketkazadi. Moychechak miyani kuchli qiladi va sovuqdan bo'lgan bosh og'rig'ida foyda qiladi. Boshdan yomon moddalarni chiqarish uchun ishlatiladi. Balg'amni ko'chiradi, siydikni haydaydi va toshni chiqaradi. Ayniqsa, gulining gunafsha tusli xili shunday ta'sirga ega. Sovuqda va issiqda bo'lgan qovuq og'riqlarida qizdirilib qo'yiladi.

Damlamalar tayyorlash. Moychechak damlamasi asablarni tinchlantiradi. Buning uchun moychechak va lavanda o'simliklaridan 10 gr dan olib aralashtiriladi va (200



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th May - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

ml) qaynoq suv solinadi hamda 15 daqiqadan so'ng iste'mol qilinadi. Shunda asablarini dam olgani va tinchlanganini his qilinadi.

Tomoq og'rishi yoki shamollashning oldini olish uchun moychechak damlamasi bilan tomoqni chayish foyda qiladi. Buning uchun 20 gr moychechakka qaynoq suv solinadi va 20 - 30 daqiqa davomida tindiriladi. Har 2 soatda yangi tayyorlangan eritma bilan tomoq chayib turilsa tezda shamollashning oldi olinadi [3].

Moychechak o'simligini o'stirish texnologiyasi

Nihollarni biologik xususiyatlari: moychechak urug'larini unishi 6-7°C dan boshlansa-da, optimal harorat 20-25°C hisoblanadi. Agar urug'lar ekilgandan so'ng namlik yetarli bo'lmasa, urug'lar uzoq vaqtgacha unmasligi mumkin. Bu vaqtda urug' ekilgan maydonlar sug'oriladi.

Nihollar unib chiqqandan so'ng (namlik va havoning harorati normal darajada bo'lganda) 20-40 kunda har bir niholda 6-10 tadan rozetka barglari o'sib chiqadi. Kuzda ekilgan nihollar shu holda qishlaydi.

Erta bahorda ekilgan nihollardan aprel oyining birinchi o'n kunligida 7-9 tadan rozetka barglari o'sib chiqadi. Mart-aprel oyi davrida bahorning sel yomg'ir kelishi natijasida rozetka barglari tez o'sishi va yiriklashishi natijasida o'simlik o'rtasida poyani o'sib chiqishi va shoxlanishi kuzatiladi. O'simlikning namlik bilan yaxshi ta'minlab borilsa, havo haroratining ko'tarilib borishi natijasida may oyining birinchi o'n kunligida dastlabki gullar ochiladi. Umuman olganda bahorda ekilgan urug'lardan 30-50 kunda dastlabki gullarni ochilishini ko'ramiz. Kuzatishlar shuni ko'rsatdiki, o'simlik poyalarida endigina paydo bo'lgan g'unchalardan 10-12 kunda gullar ochilishi mumkin. Bunga havoning harorati, tuproq namligi va tuproqdagi oziqa elementlar muhim rol o'ynaydi.

Kunlarning issiqligi va tuproq namligiga qarab, o'simlikdagi bitta savatcha 5-6 kun ochilib turishi mumkin. Havoning harorati o'rtacha 19-21°C bo'lganda gullarni yaxshi ochilishi kuzatilgan. Haroratning 30°C dan ortishi gullarning ochilishiga salbiy ta'sir etishi bilan birga ularning maydalashishiga olib keladi. Gullarni ochilishida yorug'lik ham muhim ahamiyatga ega. Havoning bulutsiz ochiq bo'lib turishi gullarni tez ochilishiga yordam beradi [3;4].

O'stirish usullari. Moychechak yorug'sevar, namsevar va uni unumdor yerlarda o'stirish maqsadga muvofiqdir. Shu sababli avvalo urug'larni sepishdan oldin har gektar yerga 20-25 tonnadan mahalliy o'g'it (go'ng) va superfosfat solib, tuproq 25-30 sm chuqurlikda haydaladi. O'simlik o'sishi va rivojlanishi uchun tuproqda



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th May - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

mineral moddalar yetarli bo'lishi kerak. Moychechak o'simligini 2-3 yil ekib, so'ng o'rniga boshqa dorivor yoki qishloq xo'jalik o'simliklarini ekish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Aks holda yil sayin hosildorlik pasayib borishi mumkin. Moychechak bahorgi-yozgi o'simlik bo'lgani sababli, iyul va avgust oylarida undan bo'shagan maydonlarga kechki ekinlar ekib ulardan qo'shimcha hosil olish ham mumkin.

Nihollar o'sish davrida begona o'tlarni ko'payib ketishini hisobga olgan holda 4-6 sm chuqurlikda kultivasiya o'tkazilishi, begona o'tlarni yo'qolishiga sabab bo'ladi. O'simlikni yig'ishtirib olgandan keyin ham tezlik bilan shudgor qilinishi, shu maydonlarni begona o'tlardan tozalanishiga, o'simlik qoldiqlarini tuproq ostida chirishiga yordam beradi.

O'zbekistonda dorivor o'simliklarni dehqonchiligi eng yosh yo'nalish bo'lganligi sababli barcha dorivor o'simliklar kabi moychechak o'simligining biologiyasi va o'g'itlash tizimi bizning sharoitda to'liq o'rganilmagan. Moychechak ekiladigan yerlarni mexanik tarkibi, o'rtacha sho'rlanish darajasi juda past bo'lishi lozim. O'simlik ekiladigan maydonlar kuzda gektariga 25-30 tonna go'ng va fosforli o'g'itlarni yillik normasini 70% solinib haydalishi kerak.

Moychkechakni o'sib rivojlanishi davomida ikki marta: birinchisi - maysa hosil bo'lgan davrda (mart oyining birinchi o'n kunligida), ikkinchisi g'unchalash davrida (aprel oyining uchinchi o'n kunligida) gektariga 30-40 kg hisobida azotli o'g'itlar beriladi. Azotli o'g'itlarni o'simlikni sug'orishdan oldin beriladi. O'simlikni azotli, fosforli va organik o'g'itlar bilan yaxshi oziqlantirilganda moychechak gullarini gektariga 1,5-3,0 sentnerga oshganligi Aniqlangan.

Kasallikga qarshi kurashish. Moychechak o'simligi vegetasiya davomida barcha madaniy o'simliklar kabi un shudring kasalligi bilan kasallanishi mumkin. Ayniqsa soya yerda ekilgan o'simliklar tez kasallanadi. Un shudring kasalligini oldini olish va davolash maqsadida fungisidlardan - topas preparatidan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Kasallikni oldini olish maqsadida 100 litr suvga 25 ml topasni eritib purkaladi. Kasallik belgilari paydo bo'lganda esa 100 litr suvga 30 ml dan preparat eritilib purkaladi. Profilaktika maqsadida may va iyun oyida bir martadan purkalsa, kasallikni davolashda 7-14 kun oralig'ida takrorlab turiladi.

Yerdagi ko'pchilik hasharot lichinkalari va lavlagi uzunburun, kolorado qo'ng'izi, kanalar va qo'ng'izlarni yo'qotish maqsadida karate preparatini purkash yoki uning o'rniga 3 kg/ga xlorofos preparatidan ham foydalanish mumkin.



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th May - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

Bu xildagi preparatlarni iloji boricha mart oyi oxiri va aprel oyida o'tkazgan ma'qul.

Zamburug' kasalliklariga asosan grozan preparati, ayrim hollarda un shudring kasalligiga qarshi oltingugurt qo'llaniladi. Kasallik va zararli hasharotlarga qarshi kurashning yana birdan bir yo'li almashib ekishni yo'lga qo'yish bilan birga begona o'tlarga qarshi kurashishdir [4;6;].

Mahsulot tayyorlash. Mahsulot o'simlik qiyg'os gullaganda tayyorlanadi. Savatchalardagi gullar gullay boshlaganda tilsimon gullar yuqoriga qaragan bo'lib, To'liq gullagan davrida gorizental holatga o'tadi. Gullab bo'lgandan so'ng tilsimon gullar pastga qarab yo'naladi. Ayni shu vaqtda naychasimon gullarda meva hosil bo'la boshlaydi. Savatchalardagi gullar qiyg'os gullagan davrda, ya'ni tilsimon gullar gorizental holatga o'tgan vaqtida savatchalar tarkibida efir moyi eng ko'p yig'iladi. Shuning uchun mahsulotni shu davrda tayyorlash tavsiya etiladi. Savatchalar qo'l bilan yulib yoki xaltachali maxsus qaychi bilan qirqib, yoki xaltali maxsus xokandozga o'xshagan taroq yordamida yulib olinadi. Yig'ilgan savatchalar aralashmadan tozalangandan so'ng soya yerda yoki quritgichlarda 40 C dan oshiq bo'lmagan haroratda quritiladi [5;6]

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Pratov O', Jumayev Q. "Yuksak o'simliklar sistematikasi" "O'AJBNT" markazi, Toshkent - 2003.
2. Pratov O', ShamsuvaliyevaL, Suloymonov E, Axunov X, Ibodov K, Mahmudov V. "Botanika (morfologiya, anatomiya, sistematika, geobotanika)" Ta'limnashriyoti, Toshkent- 2010.
3. XolmatovX. X, Ahmedov O'.A "Farmakognoziya" Ibn Sino nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi 1995.
4. Sagdiyev M. T, Alimova R. A "O'simliklar fiziologiyasi " Toshkent Yangiyul polygraph service 2007.
5. Beknazarov B. O "O'simliklar fiziologiyasi" Aloqachi nashriyoti 2009.
6. Farmakognoziya o'quv- uslubiy majmua Tuzuvchilar Urmanov F.F. Xodjayeva M.A. Toshkent-2016.

Internet saytlari.

www.planetarium.uz.

www.dissertatsiya.uz.

